

OMILLARINING TA'SIRI

Urganch davlat universiteti huziridagi

Xiva qishloq xo'jalik texnikumi katta o'qituvchisi

Abdullayeva Umida Shuxratovna

Ismaloq sovuqqa chidamli ekin hisoblanadi, shuning uchun uni yetishtirish texnologiyasi qiyin emas. Uning urug'lari harorat 4°C da unib chiqa oladi, ko'chatlar harorat 6°C gacha bo'lgan sovuqlarga bardosh beradi. Ismaloqning o'sishi va rivojlanishi uchun harorat taxminan 15 ° C bo'lishi kerak. Bu o'simlik erta pishishga tegishli deb bejiz aytilmagan, chunki u birinchi kurtaklar paydo bo'lganidan 45 kun o'tgach foydalanish uchun yaroqlidir. Namlikni "sevadi" va o'g'itlashni talab qiladi. Sug'orish yetarli bo'lmasa, barg rozetlari to'liq rivojlanishni to'xtatadi, bu barglarning qattiqligiga va o'simliklarning erta yetilishiga olib keladi.

Harorat, namlik, yorug'lik, havo bosimi, sho'rlanish, suv oqimi, shamol, radioaktiv nurlanish, joy reylefi va boshqalar abiotik omillar hisoblanib o'simliklar rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yorug'lik asosiy abiotik omillardan biri hisoblanib, o'simliklarning hayotiy faoliyatida katta ta'sir ko'rsatadi. Fotosintez faqat yorug'dagina ro'y beradi, shu boisdan fotosintezlovchi o'simliklar yorug'dagina mavjud bo'ladi. Odatda, o'simliklar bargiga tushadigan quyosh nurining faqat 1% i o'zlashtiriladi, qolgan qismi qaytariladi yoki issiqlik sifatida tarqaladi. O'simlik faqat tik tushgan yorug'likni emas, tarqoq holda tushgan yorug'likdan ham foydalanadi. Tik tushgan yorug'lik o'simlikning xlorofill donachalari va sitoplazmasini o'ldirib, o'simlikka salbiy ta'sir qiladi. Tarqoq tushgan yorug'lik foydali bo'lib, o'simlik bilan yorug'likni to'liq o'zlashtiradi, sababi tarqoq tushgan yorug'lik sariq-qizil nurlardan iborat bo'ladi. Yer sharining har bir zonasida yorug'lik sharoiti o'ziga xos bo'ladi.

Atmosfera havosi Yerning ma'lum qobig'i sifatida narcha tirik organizmlar uchun, jumladan o'simliklar uchun ham nihoyatda muhim ekologik faktor hisoblanadi. Atmosfera havosi o'simliklarda boradigan fotosintez jarayonini CO₂ va nafas olish

uchun O₂ bilan ta'minlaydigan manba hisoblanadi. Atmosfera havosining tarkibi, deyarli bir xil bo'lib, o'simliklar tarqalgan barcha mintaqalarda 78,1% azot, 21% kislorod, 0.032% karbonat anhidrid, 0,9% inert gazlaridan iboratdir. Olimlarning ta'kidlashicha, 2 mln. yilda yerga deyarli hamma suv (taxminan 1,5mlrd.km³) "parchalanish- qaytarilish" sklidan o'tib, "fotosintez-nafas olish" holatini bosib o'tadi. Ajralgan kislorod stmosfera kislorodini tashkil etadi. Atmosfera tarkibida doimiy bo'lmagan komponentlardan tutun va sanoat gazlari ham o'simlikning o'sishga, rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ismaloqni erta bahorda ekish mumkin. Bahorda tashqi termometrda kunduzgi 15-20 daraja harorat o'rnatilishi bilan oq, ismaloq ekish boshlanadi. Agar siz ismaloqni kech ekib qo'ysangiz, u o'qlarni chiqaradi va barglari mayda va ta'imsiz bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.R.Xamdamovich "Dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish" Toshkent - 2015y.
- 2.Ibn Sino "Shifobaxsh o'simliklar haqida" Toshkent-1990y.
3. Nabiev M.M Botanika atlas – lug'at Toshkent 1963.
4. Xoliqov S, Prator O', O'simliklar aniqlagichi, Toshkent «O'qituvchi» 1970.
5. Hamidov A, Nabiev M.M, Odilov T. O'zbekiston o'simliklari. Toshkent «O'qituvchi» 1987.
6. Haydarov K.H, Hajmatov Q.H. O'zbekiston o'simliklari. Toshkent «O'qituvchi» 1992. <https://arxiv.uz>